Xulosa. Poetik nutq bu ekspressiv nutqdir. Shuning uchun ham poetik nutqni o‘rganishda uning ekspressiv jihatlariga e’tibor qaratish, ekspressivlikning yuzaga kelishini ta’minlovchi vosita va figuralarni tadqiq etish bunday nutq mohiyatini keng va atroflicha o‘rganish uchun imkoniyat yaratadi.

Ekspressivlikning yuzaga kelishida emotsionallik muhim ahamiyatga ega. Faqat shuni ta’kidlash lozimki, ekspressivlik emotsionallikka nisbatan keng tushuncha bo‘lib, u nafaqat emotsionallikni, balki erkin intellektual funksiyani ham yuzaga chiqaradi. Yekspressivlikka berilgan turli ta’riflardan kelib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkinki, ekspressivlik uslubiy neytral vositadan farqli tarzda o‘zining ifodaliligi, emotsionallikni subyektiv baholash yo‘li bilan ta’sir etishi, voqelikka yoki adresatga bo‘lgan munosabatini emotsional ifodalashi bilan xarakterlanadi. Uning ifoda vositalari sifatida badiiy tasvir vositalari, troplar va poetik nutqning shakllanish jarayonida qo‘llanuvchi turli sintaktik-stilistik figuralarni ko‘rsatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Винокур Г.О. О языке художественной литературы. Москва, “Высшая школа”, 1991.

(2). Абдупаттоев М. Ўзбек матнида суперсинтактик бутунликлар. Фил. фанл. номз... дисс..., Тошкент, 1998.

(3). Абдуллаев А. Экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. Б.Умуркулов. Поетик нутк лекцикаси. Тошкент, “Фан”. 1981.

(4). Королева Е.И. Экспрессивные грамматические средства языка в аспекте функционально-семантического поля (на материале современной британской беллетристики). Автореф… дисс…канд…фил…наук, Екатеринбург, 2016.

(5). Романова Н.П. О метаязыке раздела лексикологии, изучающего экспрессивную лексику. Экспрессивность на разных уровнях языка. Межвуз. сб.науч. трудов, Новосибирск, 1984.

Xalilova Sitora Zarifovna (Toshkent Amaliy fanlar universiteti TEFL o‘qituvchisi, “Gavhar” ko‘chasi, 1, Toshkent, O‘zbekiston; E-mail: sita.khalilova30@gmail.com)

INGLIZ TILIDA FE’L ASOSIDAN SHAXS OTLARI YASASH USULLARI: MORFOLOGIK VA SEMANTIK YONDASHUV

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida shaxs otlarining yasalish xususiyatlari, so‘z yasalishining tilshunoslik tarixidagi o‘rni, shuningdek, har ikki til tizimidagi umumiy va farqli jihatlar morfologik, semantik, tarixiy tahlillar asosda yoritilgan. Tilshunoslikda shaxs otlarining ahamiyati hamda ularning lingvistik xususiyatlari ilmiy-nazariy asoslanib yoritib berilgan. Maqolada ingliz tilida fe’l asosidan shaxs otlari yasashning morfologik va semantik tasnifi, tarixiy taraqqiyoti va samaradorligi ilmiy tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *tilshunoslik, inson, ot, so‘z, muloqot, vosita, lingvistik, morfema, fonetik.*

Халилова Ситора Зарифовна (Преподаватель TEFL Ташкентского университета прикладных наук, ул. “Гавхар”, 1, г. Ташкент, Республика Узбекистан; E-mail: sita.khalilova30@gmail.com)

СПОСОБЫ ОБРАЗОВАНИЯ ЛИЧНЫХ СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ ОТ ГЛАГОЛЬНЫХ ОСНОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ: МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ И СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация. *В статье анализируются особенности образования личных существительных в английском и узбекском языках, их роль в истории лингвистики, а также сходства и различия двух языковых систем. Рассматриваются лингвистические характеристики личных существительных и их значение в теоретическом контексте. Приводятся сведения о развитии этой области в узбекской и английской лингвистике.*

Ключевые слова: *лингвистика, человек, существительное, слово, коммуникация, средство, лингвистический, морфема, фонетический.*

Xalilova Sitora Zarifovna (Tashkent University of Applied Sciences, TEFL teacher, Gavkhar St. 1, Tashkent, Uzbekistan; E-mail: sita.khalilova30@gmail.com)

METHODS OF DERIVING AGENTIVE NOUNS FROM VERBAL BASES IN ENGLISH: A MORPHOLOGICAL AND SEMANTIC ANALYSIS

Annotation. *This article examines the features of agentive noun formation in English and Uzbek, the role of word formation in the history of linguistics, as well as the similarities and differences between the two language systems from a comparative and analytical perspective. The significance of agentive nouns in linguistics and their linguistic properties are investigated from a theoretical and scholarly standpoint.*

In addition, theoretical insights into the linguistic characteristics, structural composition, and developmental stages of agentive nouns in English linguistics are presented.

Keywords: *linguistics, human, noun, word, communication, medium, linguistic, morpheme, phonetic.*

Kirish. Til jamiyat hayotida muhim ijtimoiy hodisa bo'lib, u insonlar o'rtasidagi muloqotni ta'minlovchi asosiy vosita sifatida jamiyatning uzluksiz rivojlanishiga xizmat qiladi. Til inson tafakkurining shakllanishi, ilmiy bilimlarni egallash, atrof-muhitni anglash hamda borliqni idrok etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, til orqali muayyan jamiyat madaniyati global miqyosda izchil aloqaga kirishib, madaniyatlararo munosabatlar va hamkorliklar rivojlanadi. Bu jarayon jamiyat taraqqiyot darajasining yuksalishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Insoniyat taraqqiyotida til va madaniyatning o'zaro uzviy bog'liqligi muhim ilmiy muammo sifatida e'tirof etiladi. Mazkur bog'liqlikni o'rganish lingvistik tadqiqotlar, xususan, qiyosiy-typologik izlanishlarning ahamiyatini yanada oshiradi. Shu jihatdan, tillarning o'zaro qiyosiy tahlili ularning strukturaviy va semantik xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, til birliklarining madaniy va ijtimoiy omillar bilan aloqasini yoritishga imkon beradi.

Ingliz tilining derivatsion tizimi, xususan, agentiv otlarning yasalishi, tilshunoslikda eng ko'p o'rganiladigan jarayonlardan biridir. Agentiv otlar (agentive nouns) fe'l bildirgan harakatni bajaruvchi shaxsni yoki vositani nomlashda qo'llanadi va bu jarayon ingliz tilining nominativ imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi [1;95-b.].

Tilshunoslik adabiyotlarida agentivlik ikki asosiy turga bo'linadi. Agent – harakat bajaruvchi shaxs (teacher, runner, builder). Instrumental agent–harakatni bajaruvchi vosita (heater, blender). Aronoff (1976) va Plag (2003) ta'kidlaganidek, ingliz tilida agentiv otlar ko'proq suffiksatsiya orqali hosil qilinadi. Eng faol suffikslar -er, -or, -ist, -ian/-an, -ee bo'lib, ular morfologik produktivlik darajasi va semantik ixtisosligi bilan farqlanadi [2;110-b.].

Shuningdek, zamonaviy ingliz tilida gender agentivlikni bildiruvchi suffikslar (-ess) deyarli qo'llanmay qolgan, bu holat gender neytrallik tendensiyalari bilan izohlanadi [3;42-b.]. Shaxs otlari lingvistik tahlilning muhim obyekti hisoblanadi. Ular nafaqat so'z yasalishining grammatik va semantik asoslarini aks ettiradi, balki tilning ijtimoiy va madaniy funksiyalarini ham ochib beradi. Ingliz tilida shaxs otlarining paydo bo'lishi va shakllanishi qadimgi german va kelt tillariga borib taqaladi. O'rta asrlarda diniy va qirollik institutlari orqali ko'plab bibliyaviy va qirollik ismlari (masalan, James, Mary, Henry) keng tarqalgan. XIX asr oxirlariga kelib, anglo-sakson va lotin manbalaridan kelib tushgan ismlar hukmronlik qiladigan holga keldi. Tilshunoslikda shaxs otlari keng qamrovli "antropoanimlar" kategoriyasiga kiradi. Ular individni boshqalardan ajratib ko'rsatuvchi individual va identifikatsiyalovchi belgilar sifatida xizmat qiladi. Dastlabki jamiyatlarda insonlar, ko'pincha, jismoniy yoki ijtimoiy xususiyatlariga qarab nomlangan – masalan, qabila boshlig'i, yoshi, jasorati yoki tashqi ko'rinishi bo'yicha. Vaqt o'tishi bilan, bu tavsifiy belgilar doimiy shaxs ismlariga aylangan [4;128-b.].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ingliz tilshunosligida shaxs otlarining yasalishi masalasi XX asr boshlaridan boshlab sistematik ravishda o'rganila boshlagan. R.Quirk, S.Greenbaum, G.Leech va J. Svartvik tomonidan yaratilgan "A Comprehensive Grammar of the English Language" asarida shaxs otlari grammatik va semantik jihatdan keng tahlil qilingan. Mualliflar agentive nouns-shaxs otlarini gap tarkibidagi sintaktik vazifalari hamda referensial xususiyatlari bilan bog'liq holda o'rganib, ularning fe'l asosidagi ma'no xususiyati saqlanib qolishini ta'kidlaydilar. Semantik yondashuv nuqtayi nazaridan J.Lyons va C. Fillmore ishlarida shaxs otlari "agent" semantik roli bilan uzviy bog'liq birliklar sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, Fillmorening "case grammar" nazariyasida agentlik tushunchasi fe'l valentligi va semantik rollar tizimi orqali izohlanib, shaxs otlarining ma'no shakllanishiga asos yaratgan.

Qiyosiy tilshunoslik doirasida ingliz va o'zbek tillarida shaxs otlarining yasalishi chuqur o'rganilmagan bo'lsa-da, olib borilgan tadqiqotlar ushbu ikki til o'rtasida morfologik va semantik o'xshashliklar hamda farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Ingliz tilida affiksatsiya bilan bir qatorda konversiya usulining faol qo'llanishi, o'zbek tilida esa, asosan, affiksal so'z yasalishining dominantligi muhim farqlovchi belgi sifatida ta'kidlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot quyidagi metodlar asosida amalga oshirildi:

Struktur-morfologik tahlil. Agentiv suffikslarning morfologik tuzilishi, fe'l asosiga qo'shilish qoidalari, fonologik o'zgarishlar va derivatsion produktivligi o'rganildi [3;118-b.]. Masalan: run –runner (fonetik ikki martalash – consonant doubling), swim – swimmer, act –actor (lotin asosli fe'l bilan kelishi). Struktural yondashuv shaxs otlarining grammatik tuzilishini va ularning yasalish usullarini tadqiq etadi. Morfologik tahlil shaxs otlarining hosil bo'lishida ishlatiladigan lingvistik vositalarni – prefiks, suffiks va qo'shimcha-

larni aniqlashga qaratilgan. Masalan: Teach – Teacher (ingliz tili), Haydash – Haydovchi (o‘zbek tili). Sintaktik rol esa shaxs otlarining gapdagi vazifalarini belgilaydi. Ushbu masalalar Ferdinand de Saussure’ning strukturalizm nazariyasi va Lev Shcherbaning morfologik yondashuvi doirasida yoritilgan. Masalan: The teacher explained the lesson (ingliz tili), O‘qituvchi darsni tushuntirdi (o‘zbek tili).

Semantik tahlil. Agentiv otlar Jackendoff ilgari surgan semantik rollar asosida tasniflandi. Har bir rolga oid misollar alohida guruhlarga ajratildi [5;45-b.]. Bu yondashuv shaxs otlarining ma’nosini, ular orqali ifodalanadigan tushunchalarni va kontekstdagi ma’no o‘zgarishlarini o‘rganadi. John Lyons (Semantik nazariya) va Geoffrey Leech (Denotativ va konnotativ semantika) asarlarida ochib berilgan.

Denotativ ma’no: shaxs otlarining asosiy lug‘aviy ma’nosi. Masalan: Doctor – tibbiyot mutaxassisi. Konnotativ ma’no: so‘zning emotsional yoki ijtimoiy qo‘shimcha ma’nosi. Masalan: Hero (Ingliz tili) – jasur inson; qahramon (o‘zbek tili) – jasur yoki buyuk tarixiy shaxs. Pragmatik yondashuv: Pragmatik yondashuv shaxs otlarining muloqotdagi vazifasi, nutq maqsadi va kontekstga bog‘liq qo‘llanilishini o‘rganadi. Muloqot vazifasi: shaxs otlari muloqotda axborotni qanday uzatishini tahlil qiladi. Paul Grice (Pragmatik nazariya) George Yule (Nutqning kontekstual analizi). Masalan: Mr. Smith, could you help me? – Hurmat ifodasi. Ustoz, yordam bering! – Hurmatli murojaat. Ijtimoiy va madaniy kontekst: shaxs otlarining qo‘llanilishida ijtimoiy mavqe, jins, yoki madaniyatga bog‘liq o‘zgarishlar. Masalan: Chairman – Chairperson (gender neytrallikka intilish, ingliz tili).

Tahlil va natijalar. Morfologik tahlil. -er eng universal, barcha kelib chiqishga ega fe’llarga qo‘shiladi. Fonologik moslashuvchanlikga ega: stop – stopper, travel – traveler (1;112-b.). -or ko‘proq lotincha fe’llar. So‘z yasash darajasi yuqori: sailor, tailor – sinxron tahlilda agentiv yasalish ko‘rinadi, ammo tarixan boshqacha. -ist semantik jihatdan eng tor, aniq sohalarda qo‘llanadi. Ideologik agentlar ko‘p: feminist, socialist [6;110-b.].

Semantik tahlil. Jackendoff [5;51–53-b.] agentivlikni semantik rollar bo‘yicha tasniflaydi: Agent-harakat bajaruvchi shaxs: writer, singer. Professiya–kasb bildiruvchi agent: lawyer, pharmacist. Instrument-harakatni bajarayotgan mexanizm yoki vosita: computer, blender, mixer. Patient – harakatni qabul qiluvchisi: employee, payee, refugee.

Tarixiy tahlil. Quirk et al. agentiv suffikslarning ikki asosiy tarixiy manbasini ko‘rsatadi: German mo‘g‘oralaridan meros – -er, Lotin va fransuz tilidan kirgan -or, -ist, -ian, -ee. Masalan: lat. “actor” – actor, lat. “editor” – editor [7;1534-b.].

-er suffiksining yuqori produktivligi: -er suffiksi barcha german, roman va hatto borrowed fe’llarga qo‘shila olish qobiliyatiga ega bo‘lib, ingliz tilidagi eng faol derivatsion morfemadir [6;89-b.]. Misollar va tahlil: teach – teacher (kasb), drive – driver (agent), print–printer (vosita). Misollar: act – actor, supervise – supervisor, inspect – inspector. -ist suffiksining ixtisoslashgan semantik maydoni: Bu suffiks fan, din, ideologiya, kasb yoki san’at bilan bog‘liq agentlarni bildiradi [8;132-b.]. Misollar: art – artist, biology – biologist, Marx Marxist. -ian/-an suffiksining guruhga oid agentiv semantikasi: Bu suffiks kasb, ilmiy yo‘nalish yoki professional mansublikni bildiradi [8;1650-b.]. Misollar: library – librarian (muassasa xodimi), history – historian (fan sohasi), music – musician (san’at sohasi). -ee suffiksining “patient” rolidagi xususiyati: -ee agentiv emas, balki harakat qabul qiluvchisini bildiradi, bu ingliz tilida kam uchraydigan nominalizatsiya turi [9;220-b.]. Misollar: employ – employee (ishchi, agent emas), train – trainee (o‘rgatilayotgan shaxs), nominate – nominee. -ess suffiksining zamonaviy nutqda pasayishi: gender farqlovchi -ess suffiksi zamonaviy ingliz tilida ijtimoiy-sotsiologik sabablarga ko‘ra ishlatilmay bormoqda [3;55-b.]. Eski shakl: actress, yangi neytral shakl: actor.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot ingliz tilida fe’l asosidan shaxs otlarining yasalish jarayonini morfologik va semantik yondashuvlar asosida kompleks tahlil qilishga qaratildi. O‘tkazilgan ilmiy izlanishlar natijasida fe’l asosidan hosil bo‘lgan shaxs otlari ingliz tilining leksik tizimida muhim o‘rin tutishi, tilning nominativ va kommunikativ imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirishi aniqlandi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ingliz tilida shaxs otlari, asosan, suffiksatsiya orqali shakllanib, -er, -or, -ist, -ee, -ant/-ent kabi affikslar eng produktiv vositalar hisoblanadi. Ushbu morfologik vositalar fe’l asosiga qo‘shilib, harakatni bajaruvchi shaxs, kasb egalari, faol ishtirokchi yoki harakat ta’siriga uchragan shaxsni ifodalovchi leksik birliklarni yuzaga keltiradi. Bu holat ingliz tilining analitik xarakteri va so‘z yasashdagi iqtisodiylik tamoyili bilan bevosita bog‘liqdir.

Semantik tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, fe’l asosidan yasalgan shaxs otlari faqatgina grammatik o‘zgarish natijasi bo‘lib qolmay, balki harakat va shaxs o‘rtasidagi konseptual munosabatni aks ettiradi. Bunday otlarda fe’lning semantik yadrosi saqlanib qoladi va yangi leksik birlikda agentlik, professionallik, ijtimoiy rol yoki funksional faoliyat kabi ma’nolar shakllanadi. Natijada shaxs otlari tilning semantik bo-

yishini ta'minlovchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, tadqiqot fe'l asosidan yasalgan shaxs otlarining vaqt o'tishi bilan semantik kengayishga va ko'p ma'nolilikka moyilligini ko'rsatdi. Ijtimoiy taraqqiyot, kasb va faoliyat turlarining ko'payishi ushbu birliklarning yangi semantik qatlamlar bilan boyishiga olib keladi. Bu jarayon ingliz tilining dinamik rivojlanishini va uning ijtimoiy ehtiyojlarga moslashuvchanligini yaqqol namoyon etadi.

Tadqiqot natijalari ingliz tilida agentiv otlar yasalishining yuqori produktiv tizimga ega ekanini ko'rsatdi. -er suffiksining yetakchi mavqeyi uning soddaligi, semantik kengligi va keng moslashuvchanligi bilan bog'liq [1;118-b.].

-or, -ist, -ian suffikslari esa kontekstual va semantik ixtisoslashuv orqali o'zining mustahkam o'rniga ega bo'lib bormoqda. -ee suffiksi mavjud bo'lishi ingliz tilida agentlikning ikki tomonlama – "agent" va "patient" – semantik ziddiyat asosida rivojlanishini tasdiqlaydi [9;1682-b.). Gender suffikslarning pasayishi esa ingliz jamiyatidagi gender-neyrallik tendensiyalarining tilga aks etishi sifatida talqin qilinadi [3;165-b].

Xulosa qilib aytganda, fe'l asosidan shaxs otlari yasash ingliz tilida morfologik va semantik jihatdan yuqori darajada tizimlashgan va produktiv jarayon hisoblanadi. Ushbu hodisa tilning lug'aviy tarkibini boyitish, yangi nominativ birliklar yaratish va kommunikativ samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari ingliz tili leksikologiyasi, so'z yasalishi nazariyasi va qiyosiy tilshunoslik sohalarida olib boriladigan keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, mazkur ish natijalari oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili grammatikasi va leksikologiyasini o'qitishda amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Bauer L. (2003). English Word-Formation. Cambridge University Press, pp. 95–120.

(2). Aronoff M. (1976). Word Formation in Generative Grammar. MIT Press, pp. 110–150.

(3). Lakoff R. (1975). Language and Woman's Place. Harper & Row, pp. 40–60.

(4). Algeo J. (1992). Onomastics: The study of names. In the Cambridge History of the English Language (Vol. Cambridge University Press.

(5). Jackendoff R. (1990). Semantic Structures. MIT Press, pp. 45–60.

(6). Plag, I. (2003). Word-Formation in English. Cambridge University Press, pp. 60–90.

(7). Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J. (1985). A Comprehensive Grammar of the English Language. Longman, pp. 1530–1540.

(8). Bauer L. (1988). Introducing Linguistic Morphology. Edinburgh University Press, pp. 130–140.

(9). Huddleston R., Pullum G. (2002). The Cambridge Grammar of the English Language. Cambridge University Press, pp. 1650–1685.

Xolisov Azizbek Shokirjon o'g'li (Andijon Texnika instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi)

SHAHAR QURILISHI BO'YICHA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA REKLAMA MATNLARINING LINGVOPRAGMATIK TAHLILI

Annotatsiya. *Tadqiqotimizda o'zbek tilida shaharsozlik va qurilish terminlari muammolarini tadqiq qilish, takomillashtirish, leksikografik va sotsipragmatik muammolarni yechishda ilmiy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot qurilish va shaharsozlikni ifodalovchi teminlarning pragmatik hamda lingvokulturologik talqini bo'yicha olib borilgan tahlillar ushbu soha vakillari uchun muhim ma'lumotlar berishi, kelgusi tadqiqotlar uchun ilmiy-nazariy manba sifatida xizmat qilishi bilan ahamiyatli.*

Kalit so'zlar: *lingvokulturologiya, ilmiy-nazariy asos, terminlar, pragmatik tahlil, rasmiy diskurs, tahlil.*

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДИСКУРСА ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВА

Аннотация. *Данное исследование имеет важное научное значение для изучения проблем градостроительной и строительной терминологии в узбекском языке, её совершенствования, а также решения лексикографических и социопрагматических задач. Представленный в работе прагматический и лингвокультурологический анализ терминов, описывающих сферу строительства и архитектуры, предоставляет ценные сведения для специалистов данной отрасли и служит теоретической базой для будущих изысканий в этом направлении.*

Ключевые слова: *лингвокультурология, научно-теоретическая база, термины, прагматический анализ, официальный дискурс, анализ.*